

## MUVAQQAT NOMLAR LINGVOPOETIKASI

**Dilrabo Andaniyazova**

Filologiya fanlari doktori, dotsent

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

e-mail: [andaniyazova1406@gmail.com](mailto:andaniyazova1406@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada muvaqqat onomastik birliklarning badiiy matndagi lingvopoetik xususiyatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** badiiy matn, badiiy onomastika, muvaqqat onomastik birliklar, muvaqqat ismlar, joy nomlari, lingvopoetik yondashuv, matnlararo aloqadorlik.

**Abstract.** This article discusses the linguopoetic properties of temporary onomastic units in a literary text.

**Keywords:** literary text, literary onomastics, temporary onomastic units, temporary names, place names, linguopoetic approach, intertextuality.

Badiiy matndagi onomastik birliklar, avvalo, muallifning badiiy niyatini yoritishga, emotsional-ekspressivlikni yuzaga keltirishga hamda matnni shakllantirishga xizmat qiladi. Professor N.Mahmudov qayd etganidek, "Har qanday san'at asarida, xususan, badiiy asarda voqeaning ham, undagi lisoniy tasvirning ham kutilmaganligi, favquloddaligi, ohorliligi mutlaqo ayriqcha ahamiyatga molik, mazkur sifatlarga sohiblik badiiy matn rasoligining azaliy o'lchovlaridan biri bo'lib kelgan"<sup>1</sup>. Olim ta'kidlagan "badiiy asarda voqeaning ham, undagi lisoniy tasvirning ham kutilmaganligi, favquloddaligi, ohorliligi" kabi mezonlar badiiy matnni ta'sirchan va yuksak estetik qiymatga ega qiladigan asosiy lingvopoetik omillardan biri sifatida qaraladi. Muallif mazkur fikrlari orqali asarning oqimida kutilmagan burilishlar va tafakkur standartlariga zid tarzda ifodalar badiiylik darajasini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini alohida e'tirof etadi.

Bunday yondashuv adabiy tilning poetik imkoniyatlarini ham anglashga zamin yaratadi. Darhaqiqat, badiiy asarda kutilmaganlik – bu nafaqat asar voqealaridagi tasvirlar, balki turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, muvaqqat onomastik birliklarning yuzaga kelishi ko'pincha ana shu kutilmaganlik va favquloddalik talabidan kelib chiqadi. Ular matnda ironiya, parodiya, komik effekt, obrazlilik, emotsional-ekspressivlik hamda jozibadorlikni yuzaga keltiradi va shu orqali o'quvchini jalb qiladi.

<sup>1</sup> Mahmudov N. Badiiy matnda aldangan kutilganlik // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2025. – №2. – B. 3–13.

**Ma'lumki**, har qanday til uzluksiz ravishda yangi paydo bo'lgan lug'aviy birliklar hisobiga boyib boradi. Tildagi hech bir so'z kommunikativ ehtiyojsiz paydo bo'lmaydi. Ammo yangi paydo bo'lgan so'zlar tildagi mavqeyiga ko'ra farqlanadi. Yangi so'zlarning barchasi ham til tizimida o'z o'rniga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Masalan, lug'at tarkibida o'z o'rniga ega bo'lmasdan yakka (individual) nutqqa xos va o'sha nutq (matn) doirasidagina qolib ketadigan, ya'ni favqulodda yaratilgan va ko'pincha bir marta qo'llanadigan so'zlar ham borki, ular doim yangiligi, g'ayriodatiyligi, betakrorligi, ko'nikilmaganligi, adabiy me'yordan farq qilishi bilan ajralib turadi.

Badiiy adabiyotda ijodkor o'zi yaratayotgan badiiy olamini to'laqonli ifodalash uchun nafaqat mavjud til birliklaridan foydalanishga, balki estetik qimmatga ega bo'lgan boshqa birliklarni yaratishga ehtiyoj sezadi. Ana shunday vaziyatda muvaqqat so'zlar yuzaga keladi. L.K.Nikitinaning quyidagi fikrlarida bunday birliklarning yuzaga kelish sabablari aniq ifodasini topgan: "Birxillikdan voz kechish istagi ijodkorlarni shunday so'zlarni topishga undaydiki, ular lug'aviy birliklar bilan o'zaro munosabatga kirishib, muallifning fikri, hissiyotini aks ettiradigan semantik o'zgachalikni vujudga keltiradi"<sup>2</sup>. Yaratilgan har qanday birlik aslida mavjud til birliklari asosida paydo bo'ladi, ammo hali ma'lum emasligi, betakrorligi, ayniqsa, estetik funksiyani bajarishi jihatidan lug'aviy birliklardan farq qiladi. Ko'rinadiki, "individual ijod mahsuli bo'lgan so'zlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini (ijodkorni) qanoatlantira olmaganda yaratiladi"<sup>3</sup>. Xuddi shunday, onomastik tizimdagi nomlar har doim qahramonlarni, joylarni nomlashda matn talabi bilan yuzaga keladigan holatlarga mos kelmaydi. Masalan, ba'zan muallifning subyektiv munosabati ifodalanadigan vaziyatlarda salbiy bo'yoqqa ega kishi nomi yoki joy nomi qo'llashga ehtiyoj bo'ladi. Biroq onomastik tizimda bunday mazmundagi nomlar uchramasligi mumkin. Ana shunday vaziyatlarda yozuvchi yoki shoirlar o'zlari nom yaratadi. Unda qahramonning yoki tasvirlanayotgan obyektning muayyan xususiyatlarini ifodalovchi belgilar, holatlar inobatga olinadi.

Shunisi ham ahamiyatliki, agar yozuvchi adabiy tilga yangi so'z kiritish maqsadi bilan, ya'ni biror nomi bo'lmagan tushunchaga nom berish maqsadi bilan so'z yasalar ekan, u yasagan so'z asarning ayni badiiy tilini o'rganish uchun u qadar ahamiyatli bo'lmaydi. Chunki bunday individual yasalarning vazifasi asosan nominativ xarakterda bo'ladi. Tilshunoslar badiiy asar tilidagi individual yasalmalar atash vazifasidan tashqari ifodalilik vositasi sifatida qo'llanilganda hamda ekspressivlik manbai bo'lgandagina badiiy til nuqtayi nazaridan ahamiyatli bo'lishini ta'kidlashadi. Demak badiiy matndagi individual ijodiy yasalmalar baholanganda, uning qanday

<sup>2</sup> Никитина Л.К. Окказиональные слова и способы их образования // Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд: СамГУ, 1972. – С. 190.

<sup>3</sup> Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 4.

maqsad bilan yasalganligi o'ta muhimdir. Shuningdek, bunday yasalmalar ifodalilikni muhim vositasi sifatida boshqa til vositalari bilan birgalikda asarning badiiy mazmunini ochishga xizmat qiladi.

Muvaqqat onomastik birliklar ijodkorlar tomonidan o'z fikr va maqsadini o'ziga xos tarzda va aniq ifodalash, tasvirlanayotgan biror obrazni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo'lgan subyektiv munosabati, ya'ni his-tuyg'ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo'llanadi. Bunday nomlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlanira olmaganda yuzaga keladi.

Ijodkorlar tomonidan yaratilgan nomlar tilshunoslikda okkazonal onimlar<sup>4</sup>, to'qima nomlar<sup>5</sup>, o'ylab topilgan nomlar<sup>6</sup>, okkazonal atoqli otlar<sup>7</sup>, muallif poetonimi<sup>8</sup> kabi terminlar ostida o'rganilgan.

Ma'lumki, badiiy matnda ijodkorning muayyan maqsadini ifodalashga xizmat qilgan nomlar umumiy xususiyatlariga ko'ra poetonim hisoblanadi. Biroq ularning ichida yuqorida aytganimizdek, badiiy matn uchun yaratilgan maxsus nomlar ham borki, ular matnda jiddiy ekspressiv yuk olib, real onomastik birliklardan shakli, tarkibi va mazmun-mohiyati jihatidan farqlanadi. Shu ma'noda ijodkorlar tomonidan badiiy matnga olib kirilgan onomastik birliklarning badiiy-estetik xususiyatlarini yoritishda bunday nomlarni **muvaqqat onomastik birliklar** termini ostida alohida tekshirishni maqsad qildik. Mavjud terminlar qamrov doirasining cheklanganligi mazkur termini qo'llash zaruratini o'rta qo'ydi.

Avvalo, muvaqqat nomlarning chegarasini belgilash zarur. *Muvaqqat* so'zi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha berilgan: "muayyan vaqtga belgilangan; vaqtincha, qisqa vaqtli. Vaqtinchalik, doimiy bo'lmagan"<sup>9</sup>. Tadqiqotda *muvaqqat* so'zining "doimiy bo'lmagan", "an'anaga aylanmagan", "ommalashmagan" ma'nolaridan foydalanildi. Bunda faqat bir asar yoki matn doirasida amal qiluvchi shaxs yoki joyning qaysidir xususiyatini belgilaydigan, ijodkorlar tomonidan maxsus

<sup>4</sup> Касьяненко Н.Е. Отонимные окказионализмы и окказиональные онимы в русском языке: Автореф дисс. ... канд. филол. наук. – Днепропетровск, 1991; Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В.В.Набокова // МНКО. 2011. № 2 – С. 48-50; Бонджолова В.Ц. Окказиональные трансформации антропонимов как инвективная лексика. Медиалингвистика, 7 (3), 357-367. 2020. <https://doi.org/10.21638/spbu22.2020.30>. Shu muallif. Okkazonalizmi ot sobstveni imena. V S'yostoyaniye i problemi na bylgarskata onomastika. Veliko T'yarno: Izd-vo Velikot'yur. universiteta. 2001. – С. 228-235; Шибалов Р.Ю. Ономастическая игра в художественном тексте (на материале ранних рассказов А.П.Чехова): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004.

<sup>5</sup> Нуритдинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний тахлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 62-63.

<sup>6</sup> Зинин С.И. Введение в поэтическую ономастику // [www.planeta-imen.narod.ru / litonomastika/main.html](http://www.planeta-imen.narod.ru/litonomastika/main.html).

<sup>7</sup> Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса "Улисс" и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. № 3. – С. 195-198.

<sup>8</sup> Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330-355.

<sup>9</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. – B. 298.

yaratilgan nomlar onomastik tizimdagi barqarorlashgan, turg'unlashgan, odatiy nomlarga nisbatan belgilanadi.

Muvaqqat onomastik birliklar standart onomastik tizimda uchramaydigan, ijodkor tomonidan yasalgan hamda muayyan badiiy niyatni yoritishga xizmat qilgan onomastik birliklardir.

**Muvaqqat onomastik birliklarning o'ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni aytish mumkin:**

- onomastik tizimda uchramaslik;
- matnga bog'liqlik (kontekstuallik);
- individuallik;
- situativlik (vaziyatga bog'liqlik);
- ko'nikilmaganlik.
- qo'llanish jihatdan cheklanganlik.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, muvaqqat onomastik birliklarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Muvaqqat onomastik birliklar standart onomastik tizimda uchramaydigan, odatda bir marta qo'llanishga mo'ljallangan, shuningdek, badiiy niyatni o'ziga xos tarzda va aniq ifodalashga, tasvirlanayotgan biror obrazni barcha qirralari bilan namoyon etishga, muallifning subyektiv munosabatni ifodalashga xizmat qiladigan hamda matn mazmuni bilan bog'liqlik kasb etgan poetik vosita hisoblanadi. Bunday nomlar tasvir obyektini tavsiflashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganda yuzaga keladi.

Qahramonlar ismlarining muayyan maqsad bilan tanlangani jihatidan U.Azimning “Tong otgan taraflarda” nomli dramatik asari diqqatga molik bo'lib, u xalqning tarixiy xotirasi bilan bog'liq o'ziga xos asar hisoblanadi. Asarda *Manguqut*, *Manguhayot*, *Kunyorug'*, *Yolg'iz Mergan*, *Tongyorug'*, *Eltug'i* kabi muvaqqat nomlar qo'llangan bo'lib, mazkur nomlar o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan. Shuningdek, nomlarda aks etgan umumturkiy tilning tarovati o'quvchini befarq qoldirmaydi. Masalan, asardagi bosh qahramon bo'lgan ona obrazining nomi *Tongyorug'* bo'lib, u mansub bo'lgan xalqning nomi *Tongli*. Bu ikki nom yasalişida *tong* so'zi muhim hisoblanadi. *Tong* so'zi ham aslida yorug'likni ifodalaydi. *Yorug'* so'zi bilan birikkanda esa barcha tonglarning yorug' bo'lish istagini namoyon qiladi. Yorug'lik, oydinlik *tong* so'zi bilan aloqalantirilgan holda ham etnonim, ham antroponim vazifasini bajargan: ***Tongyorug'***: *Bilib qo'y, o'g'lim, dunyodagi eng chiroyli xalq Tongli xalqidir. Chunki Tongli xalqi xiyonatni bilmaydi. Bu xalq xiyonatni bilmagani uchun qaro erga kirdi. Tonglilarning erkaklari mard, pahlavon; ayollari dunyodagi eng go'zal ayollardir. Bilib qo'y! Hech qachon unutm! Eng chiroyli xalq Tongli xalqidir! Chunki u xiyonatni bilmaydi!..* U.Azim, “Tong otgan taraflarda”.

Mahoratli adib qahramonlarining ismi, asosan, uzoq o'tmish bilan bog'liqligi, milliy qadriyat va tafakkur tarzi bilan uyg'unligi jihatidan ham qimmatli. Muallif hech

bir qahramonining ismini shunchaki tanlamaydi. Har biri o'ziga xos ma'no va mazmun bilan to'yingan bo'lib, jumladan, *Manguqut*, *Kunyorug'*, *Yolg'iz Mergan*, *Manguhayot* kabi antroponimlar qahramonlarning ismi-jismiga va faoliyat tarziga ishora qiluvchi so'zlar asosida yasalgan. Nomlar, birinchi navbatda, muallif to'qigan ismlar bo'lib, ular o'zbek onomastik lug'atlarida uchramaydi. Biroq har biri antroponimik tamoyillar asosida shakllantirilgan. *Manguqut* antroponimi *mangu* va *qut-baraka* so'zlarining sintezidan hosil bo'lgan. *Mangu* so'zi uzoq umrni, abadiyat ma'nosini anglatadi. *Qut* so'zi bilan birgalikda barakaning umr bo'yi davom etishi istagini ifodalaydi. Mazkur qahramon 65–70 yoshli o'ziga to'q donishmand chol qiyofasida tasvirlangan. Bunda *qut* so'zining tarixiylik ma'no qirrasini sezilib turadi. *Mangu* so'zi bilan hosil qilingan yana bir personaj ismi borki, u 18 yosh atrofidagi yosh navqiron qiz qiyofasida tasvirlanadi. Uning ismining ikkinchi komponenti *hayot* so'zi bo'lib, *mangu+hayot* so'zlarini qo'shish orqali ism egasiga uzoq umr tilash motivi singdirilgan. Agar mazkur ismlar almashtirib qo'llanganda, ya'ni cholning ismi *Manguhayot*, qizning ismi *Manguqut* deb atalganda, ism va yosh o'rtasidagi mantiqiy muvofiqlikka putur etgan bo'lar edi. Shu ma'noda, muallifning qahramon ismlarini yaratishdagi ijodiy yondashuvi muvaffaqiyatli chiqqan deyish mumkin.

Yoki quyidagi parchada qo'llangan *Eltug'i* muvaqqat nomi komponentlari ham turkiy so'zlar (el+tug'i)dan tashkil topgan bo'lib, *elning tug'i* birikmasini qisqartirib, uni lug'aviy birlikka aylantirish orqali hosil qilingan. Nom orqali “elning oldi”, “ko'zlangan maqsadni, muhim g'oyani amalga oshirishda etakchilik qiluvchi, oldinda namuna bo'lib boruvchi” kabi ma'nolarga ishora qilingan. Mazkur jihatlar qahramonning muhim qirralarini ifodalashga xizmat qilgan. Shuningdek, asarning onomastik ko'lamida izchillikni ta'minlashda ham mazkur nom muhim o'rin tutgan.

Yolg'iz mergan: *Otam kim edi?*

Tongyorug': *Otang alp **Eltug'u**. U biz omon qolishimiz uchun bizlarni quvib kelayotgan dushmanlar bilan bir o'zi uch kecha-kunduz jang qildi. Biz tog'lardan oshib, izlarimizni shamol uchirib ketguncha savashdi. Qo'limizda ikki yoshlik sen-u ammaning bir yarimga kirgan qizi bor edi. Qolganlarimiz – bobong, amman, men – sizlarni asrab qolish uchun odam oyog'i tegmagan joylarga bosh olib ketdik...*

Yolg'iz mergan: *Otam, balki, omon qolgandir?*

Tongyorug': *Yo'q. Omon qolmagan. Otang bizning borimizni ming kunlik yo'l narisidan ham bilar edi. O'lmasa, topib kelar edi-da! U bu dunyoda ikkalamizni tentiratib qo'yarmidi?..*

Muayyan bir yozuvchining asarlaridagi onomastik birliklarga e'tibor berilsa, birlashtiruvchi nuqtalar ko'zga tashlanadi. Ba'zan qahramonlarga ism berishda amal qilingan usul ijodkorning barcha asarlariga xos bo'lsa, ba'zan bir asar matnining butunligini ta'minlashda ism qo'llashdagi birlashtiruvchi jihatlar kuzatiladi.

Tilshunoslikda ma'lum bir yozuvchi antroponimikasining leytmotivini tashkil qiluvchi umumiy birlashtiruvchi nuqtalar poetonim-mediator termini bilan ataladi"<sup>10</sup>.

Yuqoridagi tahlil qilingan asarning onomastik ko'lamiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar sifatida nomlarning muallif individual yasalmalari ekani, shuningdek, ular ijobiy ma'no ifodalagan turkiy so'zlar asosida hosil qilinganini aytish mumkin.

Muvaqqat onomastik birliklar muayyan badiiy-estetik vazifaga xoslangani jihatidan badiiy matnda turli holatda namoyon bo'ladi. Aytish mumkinki, muvaqqat nomlarning deyarli barchasi ijodkorlarning o'ta shaxsiy, o'ziga xos tafakkurini, yondashuvini namoyon qiladi. Masalan, *Mag'zava qori, Sovinak qori, Tuproqbibi* (A.Qodiriy); *Xarajatxon, Farmonbibi, Xayrixoh* (S.Ahmad); *Mafkuraxonim, Alvastixonim, Aralashqo'rg'on, Dong'iston, Janobiddin, Xon Man Men, Men Xon Man, Olashovur, Vahshiy Orziqulov, Mustaqil domla* (E.A'zam); *Mustayiston, Birlashgan Gullar Tashkiloti, Ranjkom, Urg'unboy* (A.Oripov); *Donishqishloq, Donishgazet, Quyoshiston, Qobiliston* (E.Vohidov); *G'uliston, Boqizavr* (A.A'zam); *Shamolboshi, Yulduzot, Robotqul* (O.Matjon); *Kungaboqarov, Xasisxo'ja, Qog'oz Bozov, Shakar Palakov, Shotir Shoshqiniy, Yulganoy Obqocharov, Xushim Keldiev, Huzurxonov, O'salkent* (H.Siddiq); *Qoyilxo'ja, Diqqatjon, Shudringboyvachcha, G'izg'izon, G'iybatillo, Va'dayev, Obidyoldor, Mamatdevkor* (Alp Jamol); *Pinhonov* (Sh.Xolmirzayev), *Lug'atxo'jayev, So'zpardoziy, Qahratoniya, Meshpolvon, Avtobola, Vosvosxo'ja* (A.Obidjon); *Yo'qqulobod, Janjalqishloq, Falonchiyan, Borqul, Arbobxonim, Yo'g'onboy, Ma'nijon, Pistonchixo'ja, Voyqul, Kesakpolvon, O'qilon* (T.Malik); *Tongyorug', Manguqut, Manguhayot, Tongli, Kunyorug', Yolg'iz Mergan, Ayriqxonim, Gulsajda* (U.Azim); *Kungaboqarov, Yepto'ymasov, Surnazarov, Pulnazarov, Pulahmad, Tolmas Charchamasovich, Yulg'ich Yutarovich* ("Mushtum"); *Daryobog'lar, Yulduzsanar, Borsa kelmas, Borsa xatar, Borsa gumon, Qilichqora, Kulsa gul, yig'lasa dur, Birmisqolqiz, Pufakvoy, Quloqboy, Xamirbotir, No'xatvoy, Egriboy, To'g'riboy* (folklor); *Irkitboy, Kirketboy* (K.Turdiyeva), *Bilmasvoy, Bilag'on* (P.Mo'min tarj.) kabi onomastik birliklar diqqatga sazovordir. Sanalgan muvaqqat onomastik birliklar anglatgan ma'nolar tasviriy yo'l bilan ham ifodalanishi mumkin. Bu yasalmalar bilan tanishgan har bir o'quvchi odatdagi nomlarga nisbatan ulardan o'ta ta'sirlanadi, chunki ulardagi yangilik, bo'yoqdorlik, kutilmaganlik o'quvchi diqqatini jalb etadi. Bu o'rinda B.V.Tomashevskiyning umumiy okkazional so'zlar uchun bildirgan quyidagi fikrlari muvaqqat nomlarga ham taalluqlidir: "Bu yangi yasalmalar ... nutqiy takrorlardan (shablondan) qochish uchun, doimiy ishlatiladigan ifodalarni yangilash uchun yaratiladi"<sup>11</sup>. Demak, muvaqqat nomlar o'quvchi yoki tinglovchilarning hissiyotiga ta'sir etib, shu asosda nomlarning estetik vazifasi o'rta chiqadi.

<sup>10</sup> Алтухова О.Н. Поэтонимы-медиаторы в макроконтексте произведений В.Пелевина // Социосфера. – М., 2014. – №3. – С. 50.

<sup>11</sup> Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М., 1996. – С. 25-26.

Matnga bog'liqlik muvaqqat onomastik birliklarning muhim belgilaridir. Boshqacha aytganda, muvaqqat onomastik birlik tizimlashgan, standart onomastik birliklardan farq qilib, biron-bir mavzuda, muayyan bir badiiy vaziyat uchun yaratilib, biror kontekst uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham ularning qo'llanish doirasi ancha tor bo'ladi. Bu o'rinda ta'kidlash kerakki, har qanday muvaqqat so'z hosil bo'lishi bilan barqaror so'zga aylanishi mumkin. Biroq muvaqqat onomastik birliklar boshqa okkazional so'zlardan farqli tarzda barqaror onomastik tizimga kirishi faol emas. Chunki bunday nomlarning aksariyati salbiy ma'no kasb etgani kuzatildi. Shuningdek, ism qo'yish madaniyati va tamoyillariga ko'ra salbiy ma'no anglatgan antroponimlar onomastik fondan o'rin olishi inkonsiz.

Demak, muvaqqat onomastik birliklar odatiy, ya'ni onomastik tizimda uchraydigan nomlarga qaraganda ekspressivlik kuchli ifodalangan, hissiy ta'sir kuchi aniq seziladigan, ijodkor tomonidan alohida maqsadlarni ko'zlab yaratilgan birliklardir. Ularning o'ziga xosligi shundaki, bunday individual nomlar muayyan kontekstdagina qo'llanilgan bo'lib, asosan badiiy matn doirasida idrok qilinadi, ular odatda tilga o'zlashib ketmaydi. Umuman, muvaqqat nomlar mavjud real nomlarning umumiy qoliplariga muvofiq yaratiladi. Shuningdek, odatdagi nomlarga qaraganda, muvaqqat nomlar atash, nomlash uchungina qo'llanmay, balki xarakterlash, baholash, matnning ekspressivlik-emotsionalligini ta'minlash maqsadini o'z ichiga oladi.

**Muvaqqat onomastik birliklarning muhim lingvopoetik vazifalari quyidagilarda ko'rinadi:**

1. Badiiy matnda muvaqqat onomastik birliklar o'quvchi diqqatini o'ziga qaratishi, ushlab turishi, tegishli badiiy ma'nolar bilan to'yinib lingvopoetik qimmat kasb etishi barobarida badiiy matnning estetik idrok etilishini yanada qulaylashtiradi.

2. Adabiy asarning g'oyaviy mazmuni va shu bilan bog'liq muallif badiiy maqsadini yoritishga xizmat qiladi.

3. Ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

4. Komik effekt, ironik mazmuni ifodalashga yordam beradi.

5. Matnlararo aloqadorlikni ta'minlaydi.

6. Obrazlilikni yuzaga keltiradi.

7. Baholash vazifasini bajaradi va muallifning subyektiv munosabatini ifodalab keladi.

Umuman, o'zbek badiiy matnlarida muvaqqat nomlar nihoyatda ko'p kuzatiladi, biroq ularning duch kelganini olish lingvopoetik tahlil imkoniyatlarini etarli darajada ochmaydi. Tadqiqot uchun misol tanlaganda nomning originalligi, poetik imkoniyati, matnni shakllantirishi, semantik ko'lamiga e'tibor berildi. Badiiy matnda yangidan yangi original onomastik birliklar qo'llash yaxshi, albatta. Lekin nom qo'llashning ham o'ziga xos qonun-qoidalari borki, ularga amal qilmagan holda nom yaratish va badiiy matnga olib kirish mumkin bo'lmaydi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mahmudov N. Badiiy matnda aldangan kutilganlik // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2025. – №2. – B. 3–13.
2. Никитина Л.К. Окказиональные слова и способы их образования // Актуальные проблемы русского словообразования. – Самарканд: СамГУ, 1972.
3. Тўхтасинова О. Ўзбек тилида лексик окказионализмлар ва уларнинг бадий-эстетик хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент. 2007.
4. Касьяненко Н.Е. Отонимные окказионализмы и окказиональные онимы в русском языке: Автореф дисс. ... канд. филол. наук. – Днепропетровск, 1991.
5. Яковенко Н.С. О некоторых особенностях окказиональных антропонимов в английских романах В.В.Набокова // МНКО. 2011. № 2 – С. 48-50.
6. Бонджолова В.Ц. Окказиональные трансформации антропонимов как инвективная лексика. Медиалингвистика, 7 (3), 357-367. 2020. <https://doi.org/10.21638/spbu22.2020.30>.
7. Шебалов Р.Ю. Ономастическая игра в художественном тексте (на материале ранних рассказов А.П.Чехова): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Екатеринбург, 2004.
8. Нуриддинова Р. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 62-63.
9. Зинин С.И. Имена персонажей в художественной литературе и фольклоре / С.И. Зинин, А.Г. Степанов // Антропонимика. – М., 1970. – С. 330-355.
10. Пулина Е.А. Окказиональные имена собственные в романе Дж. Джойса “Улисс” и их межъязыковая передача // Пермский государственный фармацевтический вестник. 2007. № 3. – С. 195-198.
11. O'zbek tilining izohli lug'ati. Uchinchi jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
12. Алтухова О.Н. Поэтонимы-медиаторы в макроконтексте произведений В.Пелевина // Социосфера. – М., 2014. – №3.
13. Томашевский Б.В. Теория литературы. Поэтика. – М., 1996. – С.
14. Юлдашев М. Бадиий матнинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2008.
15. Kubilay Aktulum. Metinlerarası İlişkiler. <https://www.kanguruyayinlari.com.tr/metinlerarasi-iliskiler>